



Socio-political speech and its linguistic features

Adiba KASIMOVA¹, Feruza YAVKOCHEVA²

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

10 August 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 November 2023

Keywords:

language and speech,
external speech,
eloquence,
orthographic norm, legal
language lexicon,
grammatical norm,
communicative qualities,
pronunciation norms,
spelling norms,
grammatical norms,
shift of emphasis.

ABSTRACT

The article contains the concept of language and speech, types of speech, the art of speech, forms of speech, communicative qualities of speech, artistic speech, pronunciation, spelling and grammatical norms, linguistic norms, certain requirements for speech, legal terms, spelling (orthographic) norms, phonetic writing rule, morphological writing rule, legal language, and grammatical norm, the current concept of political linguistics are discussed.

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss5-pp109-114>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ijtimoiy-siyosiy nutq va uning lingvistik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

til va nutq,
tashqi nutq,
notiqlik,
orfografik me'yor,
qonun tili leksikasi,
grammatik me'yor,
kommunikativ sifatlar,
talaffuz normalari,
imloviy normalar,
grammatik normalar,
urg'uning ko'chishi.

Mazkur maqolada til va nutq tushunchasi, notiqlik turlari, notiqlik san'ati, nutq ko'rinishlari, nutqning kommunikativ sifatleri, badiiy nutq, talaffuz, imloviy va grammatik normalar, lisoniy normasi, ijtimoiy-siyosiy nutq oldiga qo'yiladigan ma'lum talablar, yuridik terminlar, imloviy (orfografik) me'yorlar, fonetik yozuv qoidasi, morfologik yozuv qoidasi, yuridik til va grammatik me'yor, siyosiy tilshunoslikning hozirgi konsepsiyasi haqida so'z boradi.

¹ Senior teacher, Department of Translation Theory and Practice, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

² Master's student, Faculty of English Philology and Translation Studies, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Общественно-политическая речь и ее лингвистические особенности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

язык и речь, внешняя речь, красноречие, орфографическая норма, лексика юридического языка, грамматическая норма, коммуникативные качества, нормы произношения, орфографические нормы, грамматические нормы, смещение ударения.

В статье содержатся понятия язык и речь, виды речи, искусство речи, формы речи, коммуникативные качества речи, художественная речь, произношение, орфографические и грамматические нормы, языковые нормы, некоторые требования к речи, юридические термины, орфографические (орфографические) нормы, правила фонетического письма, правила морфологического письма, юридический язык и грамматическая норма, обсуждается современная концепция политической лингвистики.

KIRISH. Ijtimoiy-siyosiy nutqning lingvistik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishda, avval til va nutq hodisalarining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olishimiz o'rinlidir. Til va nutq bir biridan farq qiladigan, lekin o'zaro aloqador ikki ijtimoiy, ruhiy-ma'naviy hodisadir. Ya'ni til aloqa quroli, fikr bayon qilish vositasi bo'lsa, nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan faoliyatdir. Bu ikki hodisani qiyoslaganda oradagi farqlar yanada oydinlashadi. Ya'ni, bir auditoriyada ellik nafar talaba o'tirgan bo'lsa, ularning gaplashadigan tillari bir bo'lsa-da, lekin ularning nutqlari ellik xil bo'lishi tabiiy. Birining nutqi salohiyatli bo'lsa, ikkinchisining esa mutlaqo talabga javob bermaydigan darajada bo'lishi mumkin. Til faqatgina aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, balki dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasi hamdir. Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli hisoblanadi. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar tushuniladi.

Lingvistik nazariyada Nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga, hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng xarakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl Nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan artikulyatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi.

Notiqlik — og'zaki nutq bilan bog'liq hodisa, demak u nutqning og'zaki shakli bo'lib, nutq san'ati hisoblanadi. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir.

Notiqlik turlari:

1. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik. Siyosiy va ijtimoiy ritorika {notiqlik} - bu jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy qarorlarga ta'sir qilish va ijtimoiy sabablarni ilgari surish uchun til va muloqot strategiyalaridan foydalanishdir. Ritorikaning bu turi siyosatchilar, faollar va fikr yetakchilari tomonidan ma'lum siyosatlarini qo'llab-quvvatlash, ma'lum mafkuralarni ilgari surish va o'ziga xos tarzda ommaviy munozaralarni o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik siyosiy-ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy mavzudagi nutq, sessiya,

konferensiyadagi nutq, siyosiy nutq, diplomatik nutq, siyosiy sharh, harbiy vatanparvarlar nutqi, miting nutqi, ilmiy-ommabop nutq turlarini o'z ichiga oladi

2. Akademik notiqlik. Akademik notiqlik o'zining akademizmi, ya'ni ilmiyligi bilan, yuksak talabchanligi bilan xarakterlanadi. Akademik notiqlikning eng muhim xususiyati ilmiy dalillarning kuchliligi va uning muayyan fan tarmog'ining mohiyatini yechishga bag'ishlanganligidir. Biror fanga xos bo'lgan barcha asos va qonuniyatlar to'la ilmiy tarzda yoritib beriladi. Akademik notiqlik o'quv yurtlari ma'ruzalari, ilmiy nutq{ma'ruzalar}, ilmiy sharh, ilmiy axborot turlarini o'z ichiga oladi.

3. Sud notiqligi. Bu notiqlik turi qoralovchi (prokuror) nutqi, jamoatchi-qoralovchi nutqi, oqlovchi (advokat) nutqi, jamoatchi-oqlovchi nutqi, o'z o'zini himoya qilish nutqlarini o'z ichiga oladi. Sud jarayoni o'ziga xos bir munozara maydoni bo'lib, unda umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keladigan, xalq va davlat, ayni paytda, ayblanuvchi va jabrlanuvchi manfaatini himoya qiladigan adolat va haqiqat tushunchalari hukmron bo'ladi. Bu jarayondagi barcha vositalar, jumladan nutq ham ana shu adolat va haqiqatning tantanasiga qaratilgan bo'ladi. Sud jarayonida da'vogar ham, himoyalannuvchi ham - har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashadi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo'lishi ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notiqlik san'atidagi mahoratiga bog'liq hisoblanadi.

4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik. Bu notiqlikka turli tadbir va yig'inlarda, yubiley tantanalarida so'zlanadigan qisqa va lo'nda nutq yoki suxan so'zlar kiradi. Masalan: madhiya (yubiley yoki maqtov nutqi), ta'ziya (motam) nutqi, tabrik nutqi.

5. Diniy notiqlik: xutba, va'z

1. Xutba musulmon orasida keng tarqalgan diniy nutq ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Xutba nutqi juma va hayit namozlarida, shuningdek, boshqa katta marosimlardagi so'zlanadigan nutq hisoblanadi. Shu rasmiy nutqni so'zlovchi notiq-arbob xatib deb ataladi. Xutba nutqining diniy, axborot xususiyatlaridan tashqari axloqiy jihati ham mavjud. Xutba nutqlari quruq rasmiy tilda emas, hikoyat, rivoyat, sarguzasht va boshqa inobatli, ayni paytda qiziqarli, ko'rgazmali materiallar bilan asoslangan holda so'zlanadi. Bu esa xutba nutqlarining ritorik va estetik-badiiy qiymatini oshiradi.

2. Va'z diniy notiqlikka mansub ikkinchi nutq ko'rinishidir. Va'zlar asosan keng ommaga mo'ljallanganligi uchun xutbaga ko'ra ancha erkin. Badiiylik va estetik emotsional ta'sirchanlik, tilining sodda va ravonligi bilan xutbadan farq qiladi. Notiqlik san'ati tur va ko'rinishlari jihatidan yuqorida keltirilgan shakllarda namoyon bo'ladi.

Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafasat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir ko'rsatishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo'lib, unda nutqning mantiqiy to'g'ri, aniq, chiroyli va maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

1. Nutqning to'g'riligi. "To'g'rilik deganda, -deb yozadi V. G. Kostomarov- nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishi, uning talaffuz, imloviy va grammatik normalarini (1) egallashini tushunish lozim".

Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari (2), ya'ni mantiqiyliqi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur yetadi. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga - urg'u va grammatik

normaga qattiq amal qilishni talab qiladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim.

Masalan: olma so'zi. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noning aniqlanishiga ko'maklashadi. Ya'ni olma tarzida urg'u birinchi bo'g'iniga tushganda, harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosida anglashiladi.(1)

Grammatik normaga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatlari tushuniladi. Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, ya'ni nutqning to'g'ri tuzilishiga erishish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

2. Nutqning aniqligi. - nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning asosiy fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar.

Masalan, Kaykovus: "Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan..." deydi. Aristotel: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi", - deganlar.

Aniq nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga xos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi tayin. Demak, aniqlik nutqda so'z qo'llash me'yorlariga amal qilishdan iborat.

3. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga (3) muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, toza nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli xil, g'ayritabiiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak. Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar xalaqit beradi:

1) Mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi. Nutqda adabiy tilga xos bo'lmagan so'zlar, ya'ni shevaga oid so'zlar, dialektizmlar badiiy asar tilida ma'lum bir estetik vazifada ijodkorning maqsadi va niyatini amalga oshirishda tasviriy vosita sifatida qo'llansa-da, madaniy nutqqa soya soluvchi vositadir. Shevaga oid so'zlarni nutqda tez-tez qo'llash adabiy til me'yoringa buzilishiga sabab bo'ladi, natijada nutqning tozaligiga putur yetadi. Masalan, kelohti, ketvotti, bordiz, garmdori (qalampir), zordoli (o'orik), shoti (narvon), doda, oyi va boshqalar.

2) Jargonlar. Ayrim kasb egalari yoki guruhlarining o'zlari o'ylab topgan „tili“ bo'lib, faqat ular uchun tushunarli bo'lgan terminlar jargonlar deyiladi. Jargonlar ma'lum guruhga mansub kishilar o'rtasidagi sun'iy til hisoblanadi. Masalan, pul so'zi o'g'rilar tilida mullajiring, aqcha, qassoblar tilida soqqa, yoki "ketdim" o'rnida "surdim", "dollar" o'rnida "ko'ki" tarzida ishlatiladi. Biz badiiy asarlarda bunday so'zlarga ko'p marotaba duch kelganmiz. Bunday so'zlarni qo'llash orqali yozuvchi qahramonlar va ularning atrofidagi muhitni haqqoniy tarzda tasvirlab beradi.

3) Vulgarizmlar - qo'pol, haqorat mazmunidagi so'zlardir. Vulgarizmlardan badiiy asarlarda salbiy qahramonlarning dag'alligi, qo'polligi va madaniyatsizligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Lekin bunday so'zlarning nutqda qo'llanilishi salbiy hodisadir.

4) Varvarizmlar – chet soʻzlar, adabiy tilimiz uchun begona boʻlgan soʻzlarni ishlatish ham nutqning sofligiga putur yetkazadi. Oʻrinsiz ishlatiladigan bu soʻzlar boshqa tillarga mansub boʻlib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, migratsiya, tijorat va boshqa yoʻllar orqali nutqimizga kirib kelmoqda. Masalan ok, okey, malades, obshi, pajalista, vabshe singari soʻzlar oʻzbek adabiy tili uchun xos boʻlmagan soʻzlardir.

5) Nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” soʻzlar - soʻzlovchining tilga eʼtiborsizligi tufayli yuzaga keladi va doimiy qoʻllanilib borilsa, odatga aylanib qolishi mumkin. Masalan, yaʼni, demak, xoʻsh, “tak” va boshqalar. Bunday lugʻaviy birliklarni meʼyorida ortiq qoʻllash nutqning saviyasini pasaytiradi.

6) Kanselyarizmlar - rasmiy uslubga xos soʻz va birikmalar. Masalan, yuqorida qayd etilgan, quyida bayon qilingan, ...unvoni berilsin, zimmasiga yuklansin, topshirilsin, tadbirlarni ishlab chiqsin. Sanab oʻtilgan oʻrinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir soʻzlovchi oʻz nutqining adabiy normalar darajasida boʻlishi uchun harakat qilishi lozim.

Bundan tashqari ijtimoiy-siyosiy nutqda yuridik terminlar oʻziga xos rang-barangligi bilan oʻzbek tili lugʻat qatlamida salmoqli oʻrin egallaydi. Yillar davomida shakllangan va mustaqillik sharofati bilan takomillashib kelayotgan qonunchilikda qoʻllaniladigan lugʻaviy birliklar, terminlar rasmiylik boʻyogʻi bilan ajralib turadi. Bunday boy lugʻaviy qatlamni anglatgan maʼnolariga koʻra, aniqrogʻi yurisprudensiya tarmoqlariga koʻra quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin.

1. Jinoyat va jazo tushunchalarini bildiruvchi yuridik terminlar: bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, retsidiv jinoyat, genotsid, yollanish, terrorizm, nomusga tegish, josuslik, qoʻporuvchilik, tuhmat, haqorat qilish va h.k.

2. Jinoyat protsessi bilan bogʻliq yuridik terminlar: yuzlashtirish, koʻzdan kechirish, jinoyat ishini qoʻzgʻatish, eksperiment, ekspertiza, dalillar, ushlab turish, hukm, appelyatsiya tartibida ish yuritish, sud tergov va h.k.

3. Fuqarolik huquqiga oid tushunchalarni bildiruvchi yuridik terminlar: kafillik, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, vakillik, ishonchnoma, vasiylik, intellektual mulk, majburiyat huquqi, mulkiy munosabatlar, xususiy mulk, shartnoma bitim, homiylik, daʼvo muddati va h.k.

4. Fuqarolik protsessi bilan bogʻliq yuridik terminlar: daʼvoni taʼminlash, daʼvo qoʻzgʻatish, daʼvogar, sud vakillik, javobgar, dalillarni taʼminlash, muomala layoqati, hal qiluv qarori, kelishuv bitimi, taraflarning oʻzaro kelishuvi, va h.k.

5. Davlat qurilishi va boshqaruviga oid yuridik terminlar: Davlat maslahatchisi, suverenitet, senat, saylov, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni, respublika, davlat bayrogʻi, Oliy majlis, hokim, hokimlik, davlat madhiyasi, konstitutsiya va h.k.

XULOSA. Adabiy til meʼyorlariga amal qilish, milliy til va nutqimizni boyitish, oʻzbek tilining jozibasini ochib berish va tilimizning sofligiga putur yetkazuvchi omillarni bartaraf etish uchun kurashish, shu tilda soʻzlashayotgan barcha insonning burchidir. Nutq madaniyati hozirgi davrda tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal qilish umummadaniyatimiz taraqqiyotida, shuningdek, oliy maktablarda, oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida dars oʻtish jarayonini yaxshilash bilan bogʻliq. Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati fanining barcha oʻquv yurtlarida oʻqitilishi quvonarlidir. Chunki notiqlik sanʼati sirlarini oʻrganish barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli inson uchun hayotiy zarurat hisoblanishi kerak. Oʻzbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy oʻrganish ham oʻzbek nutq madaniyati sohasi uchun nihoyatda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Omonov "Siyosiy yetakchi nutq madaniyatining jamiyatni demokratlashtirish jarayonlariga ta'siri", siyosiy fanlar nom. diss., T.: 2004, -B. 8.
2. S.Meyliyev "Tarjima va falsafiy ma'no", "Tarjima san'ati", maqolalar to'plami, 5 -kitob, -T.: 1980, -B. 252.
3. Kasimova A. N. Must-know skills to translate newspaper articles, P. 281-287. Scientific Bulletin of NamDU, NamDU ilmiy axborotnomasi- 2023, 2-son, ISSN:2181-0427 Journal.namdu.uz
4. S.Usmonov "Yuristning nutq madaniyati", T.; 2006, B.45.
5. R.Rasulov "Nutq mahorati". T.;2006, B.15.
6. <https://cyberleninka.ru/article>
7. <https://inlibrary.uz/>
8. Salieva, Z. I., oghli Bakiev, F. J., Salieva, Z., & Bakiev, F. (2021). Teaching Translation with a Moodle Database Activity: A Case-Study for Uzbek Undergraduate Students. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 9127-9135.